Abstract. This article provides an in-depth analysis of the use of artificial intelligence (AI) and machine learning (ML) algorithms in determining the probability of bankruptcy of enterprises and forming an early warning system. The limitations of traditional models - Altman Z-score, Ohlson logit model and Beaver approaches - are shown, and the advantages of modern AI models are substantiated. Random Forest, XGBoost, Logistic Regression and LSTM neural networks were selected as the research methodology, and their effectiveness was evaluated using the criteria of Accuracy, Recall, Precision, F1-score and ROC-AUC. Empirical results showed that the XGBoost and LSTM models demonstrated the highest accuracy in predicting the probability of bankruptcy. As a result of the study, scientific and practical possibilities for creating an "early warning system" based on AI were developed, and practical proposals were made to increase the financial stability of enterprises.

Key words: Artificial Intelligence, Bankruptcy Prediction, Early Warning Systems, Machine Learning, LSTM, XGBoost, Financial Stability, Risk Forecasting.

Аннотация. В данной статье проводится углублённый анализ применения искусственного интеллекта (AI) и алгоритмов машинного обучения (ML) при определении вероятности банкротства предприятий и формировании системы раннего предупреждения. Показаны ограничения традиционных подходов — модели Альтмана Z-score, логит-модели Олсона и метода Бивера, а также обоснованы преимущества современных AI-моделей. В рамках методологии исследования выбраны алгоритмы Random Forest, XGBoost, Logistic Regression и нейронные сети LSTM; их эффективность оценивалась по критериям Accuracy, Recall, Precision, F1-score и ROC-AUC. Эмпирические результаты показали, что модели XGBoost и LSTM обладают наибольшей точностью при прогнозировании вероятности банкротства. В завершение разработаны научно-практические возможности создания системы раннего предупреждения на основе AI и представлены рекомендации по повышению финансовой устойчивости предприятий.

Ключевые слова: искусственный интеллект, вероятность банкротства, прогнозирование, машинное обучение, LSTM, XGBoost, финансовая устойчивость, система раннего предупреждения.



KIRISH

Bozor iqtisodiyotining globallashuvi, raqobatning keskinlashuvi va makroiqtisodiy beqarorlik omillarining kuchayib borishi korxonalarning moliyaviy tavakkalchilik darajasi ortishiga olib kelmoqda. Inflyatsiya sur'atlari, valyuta kursining o'zgaruvchanligi, foiz stavkalari bo'yicha bosim, tashqi qarz yukining oshishi hamda ichki bozor talabining tebranishi korxonalar uchun bankrotlik ehtimolini oldindan aniqlash zaruratini yanada dolzarb qilmoqda. Mazkur jarayonda kompaniyalarning moliyaviy barqarorligini baholash va inqirozga yuz tutish ehtimolini erta aniqlash nafaqat xo'jalik yurituvchi subyektlar, balki banklar, investorlar va iqtisodiy siyosat yurituvchilar uchun ham strategik ahamiyat kasb etadi.

An'anaviy baholash modellari — Altman Z-score, Beaver, Springate, Fulmer va Ohlson regressiya yondashuvlari — uzoq yillar davomida bankrotlik ehtimolini aniqlashda asosiy vosita bo'lib kelgan [1]. Biroq iqtisodiy jarayonlarning murakkablashuvi ushbu modellarning cheklovlarini yaqqol namoyon qilmoqda. Jumladan, ular o'zgaruvchilar o'rtasidagi nolinear (chiziqli bo'lmagan) munosabatlarni hisobga ololmaydi, vaqt qatori dinamikasini chuqur tahlil qilmaydi, shuningdek, katta hajmdagi ma'lumotlar bilan samarali ishlash olmaydi. Bu esa iqtisodiy shoklar, bozor tebranishlari va kutilmagan risklarni aniqlashda sezilarli xatolarga sabab bo'ladi.

So'nggi yillarda sun'iy intellekt (AI) va mashinaviy o'qitish (ML) algoritmlarining rivojlanishi bankrotlik ehtimolini prognozlash jarayoniga tub o'zgarishlar kiritdi. Random Forest, Gradient Boosting (XGBoost, LightGBM), SVM, neyron tarmoqlar, LSTM va Transformer kabi modellar murakkab moliyaviy ko'rsatkichlarni qayta ishlash, o'zaro bog'liqliklarni aniqlash hamda vaqt bo'yicha tendensiyalarni prognozlashda yuqori samaradorlik ko'rsatmoqda. Ayniqsa, Deep Learning modellarining katta ma'lumotlar bilan ishlash imkoniyati bankrotlikning erta alomatlarini aniqlashda jiddiy ustunlik yaratadi [3].

O'zbekiston iqtisodiyotida ham so'nggi yillarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, tavakkalchiliklarni boshqarish va korxonalar faoliyatini optimallashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar faollashgan. Xususan, Zaynutdinov I. S. tomonidan pul oqimlarini boshqarish, moliyaviy aktivlar tasnifi va barqaror rivojlanish indikatori bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar [4–6] moliyaviy ko'rsatkichlarning tahliliy imkoniyatlarini kengaytirish, yangi yondashuvlarni ishlab chiqish va raqamli modellashtirishning amaliy ahamiyatini asoslab beradi. Bu esa sun'iy intellekt asosida bankrotlik ehtimolini aniqlash masalasining dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi — korxonalarning bankrotlik ehtimolini sun'iy intellekt algoritmlari yordamida yuqori aniqlikda prognozlash, mavjud klassik yondashuvlarning cheklovlarini bartaraf etish hamda AI asosida samarali erta ogohlantirish tizimini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot ushbu yo'nalishda nazariy asoslar, metodik yondashuvlar va amaliy natijalarni mujassamlashtirib, iqtisodiyotga tatbiq etish imkoniyatlarini ochib beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Korxonalarning bankrotlik ehtimolini aniqlash bo'yicha ilmiy izlanishlar 1960-yillardan boshlab shakllanib, dastlabki yondashuvlar moliyaviy ko'rsatkichlarga asoslangan an'anaviy statistik modellar orqali amalga oshirilgan. Beaver 1966-yilda bankrotlikni bashorat qilish uchun moliyaviy ko'rsatkichlardan foydalanishni taklif etgan bo'lsa, Altman 1968-yilda ishlab chiqqan Z-score modeli orqali korxonaning moliyaviy barqarorligini baholashda [1] ko'p omilli diskriminant tahlilning samarali ekanini isbotlagan. Ushbu modellarning afzalligi shundaki, ular amaliyotda qo'llash uchun qulay hamda moliyaviy nisbatlarni oson tahlil qilish imkonini beradi.

Biroq iqtisodiy jarayonlarning murakkablashuvi, noaniqlikning kuchayishi va moliyaviy ko'rsatkichlar o'rtasidagi nolinear bog'liqliklarning ortishi an'anaviy yondashuvlarning chegaralarini ochib berdi. Ohlsonning 1980-yilda taklif etilgan logit regressiya modeli ham muayyan darajada aniqlikni yaxshilagan [2] bo'lsa-da, u ham murakkab iqtisodiy sharoitlarda yetarli moslashuvchanlikni ta'minlay olmaydi. Asosiy kamchiliklardan biri — klassik yondashuvlar vaqt qatorlari dinamikasini chuqur tahlil qila bilmasligi hamda katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash imkoniyatining cheklanganligidir.

So'nggi yillarda sun'iy intellekt (AI) va mashinaviy o'qitish (ML) texnologiyalarining rivojlanishi bankrotlikni bashoratlash tizimiga tub o'zgarishlarni olib kirdi. Random Forest, Gradient Boosting (XGBoost, LightGBM), Support Vector Machine va Artificial Neural Networks (ANN) kabi modellar murakkab, nolinear munosabatlarni aniqlashda yuqori samaradorlik ko'rsatmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, XGBoost modeli an'anaviy regressiya modellari bilan taqqoslaganda 20–35 foizga yuqori aniqlik beradi, Random Forest esa barqarorligi va chidamliligi bilan ajralib turadi (Zhang & Li, 2022; Hörisch et al., 2020).

Chuqur o'rganish (Deep Learning) texnologiyalari esa bankrotlik prognozlash jarayoniga yangi bosqich olib kirdi. Xususan, LSTM (Long Short-Term Memory) va GRU (Gated Recurrent Unit) modellari vaqt qatorlari asosida moliyaviy ko'rsatkichlardagi trend va strukturaviy o'zgarishlarni aniq ushlay olishi bilan mashhur. Transformer arxitekturasida esa katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlashda hamda murakkab bog'liqliklarni aniqlashda yuqori samaradorlikni namoyon etmoqda [3].



O'zbekiston ilmiy maktabi vakillari ham ushbu yo'nalishda salmoqli tadqiqotlar olib bormoqda. Jumladan, K. Sharipov iqtisodiy barqarorlik, korxonalar faoliyatidagi risklar va investitsiya xavflarini baholash bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida zamonaviy iqtisodiy modellashdirish yondashuvlarining ustuvorligini asoslab bergan. Uning ishlari bankrotlikka ta'sir etuvchi omillarni chuqur tahlil qilishda muhim nazariy manba sifatida e'tirof etiladi. K. Ahmedjanov tomonidan ichki audit tizimini takomillashtirish, korxonalarda moliyaviy boshqaruv sifatini oshirish va risklarni nazorat qilishga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar korxona bankrotligiga olib keluvchi ichki boshqaruv omillarini aniqlashda muhim ilmiy asos yaratadi. Shu bilan birga, M. Eshovning iqtisodiy xavfsizlik, makroiqtisodiy barqarorlik va moliyaviy tizimdagi tavakkalchiliklarni boshqarish masalalariga bag'ishlangan ishlari korxonalar barqarorligiga ta'sir etuvchi tashqi makroiqtisodiy omillarning rolini chuqur yoritadi hamda bankrotlikka olib keluvchi omillarni kompleks baholashda qo'shimcha ilmiy yo'nalish sifatida ahamiyat kasb etadi.

Korxonalarning moliyaviy ko'rsatkichlarini chuqur tahlil qilishga bag'ishlangan tadqiqotchilar orasida muallifning o'z ishlari ham e'tiborga molik [4–6]. Pul oqimlarini samarali boshqarish orqali korxonalarning foyda zahirasi oshirish, moliyaviy aktivlar tasnifi va barqaror rivojlanish tamoyillarini iqtisodiy jarayonlarga integratsiya qilishga oid ilmiy izlanishlarda korxonalar faoliyatini barqarorlashtirish uchun zamonaviy analitik yondashuvlardan foydalanish zarurligi ilmiy asoslab berilgan. Ushbu tadqiqotlar sun'iy intellektga asoslangan modellarni iqtisodiy jarayonlarga tatbiq etish uchun nazariy va metodik zamin yaratadi.

Xalqaro tashkilotlar — Jahon banki (2023) va OECD (2024) — tomonidan e'lon qilingan tadqiqotlarda ham AI asosida risklarni baholash, erta ogohlantirish tizimlarini yaratish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashning dolzarbligi alohida ta'kidlanadi.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, korxonalarning bankrotlik ehtimolini prognozlashda an'anaviy yondashuvlar muayyan samaradorlikka ega bo'lsa-da, sun'iy intellekt modellarining qo'llanilishi sezilarli ustunliklar beradi. O'zbekiston olimlarining ilmiy merosi mazkur tadqiqot uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi hamda AI asosida bankrotlik ehtimolini baholash metodologiyasini takomillashtirish zaruratini yaqqol namoyon etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot korxonalarning bankrotlik ehtimolini sun'iy intellekt asosida aniqlash imkoniyatlarini baholashga qaratilgan bo'lib, ma'lumotlar bazasi O'zbekiston korxonalarining 5–10 yillik moliyaviy hisobotlari, Davlat statistika qo'mitasi va Markaziy bankning rasmiy ma'lumotlari asosida shakllantirildi. Ma'lumotlar tarkibiga likvidlik, rentabellik, leverage, pul oqimlari, aylanma koeffitsiyentlar hamda inflyatsiya, foiz stavkalari va valyuta kursi kabi makroiqtisodiy o'zgaruvchilar kiritildi.

Ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida iqtisodiy ko'rsatkichlarning statistik sifatini oshirish maqsadida standartlashtirish, multikollinearlikni kamaytirish, korrelyatsion bog'liqliklarni filtrlash va muhim o'zgaruvchilarni aniqlash amaliyotlari qo'llanildi. Muhim omillarni tanlashda XGBoost algoritmining imkoniyatlaridan foydalanildi. Vaqt qatorlari bo'yicha o'zgarishlarni chuqur tahlil qilish maqsadida LSTM modelidan foydalanildi.

Bankrotlik ehtimolini prognozlashda Logistic Regression, Random Forest, XGBoost va LSTM modellaridan foydalanildi. Logistic Regression bazaviy nazorat modeli vazifasini bajargan bo'lsa, Random Forest nonlineer bog'liqliklarni qayta ishlash va barqaror natija berish imkoniyati tufayli tanlandi. XGBoost yuqori aniqligi hamda optimallashtirish imkoniyatlari bilan ajralib turdi, LSTM esa vaqt bo'yicha o'zgarishlarni chuqur tahlil qilishda qo'llandi. Modelni o'qitish jarayonida ma'lumotlarning 80 foizi o'qitish (training) to'plami sifatida, 20 foizi esa test uchun ajratildi. Natijalarning barqarorligini ta'minlash maqsadida 5 qavatli cross-validation usuli qo'llanildi.

Modellar samaradorligi accuracy, precision, recall, F1-score va ROC-AUC mezonlari asosida baholandi. Tadqiqot natijalari XGBoost va LSTM modellarining bankrotlik ehtimolini aniqlashda eng yuqori aniqlikni berganini ko'rsatdi. Bu holat nonlineer bog'liqliklarning chuqur o'rganilishi hamda vaqt qatori dinamikasining hisobga olinishi bilan izohlanadi. Ushbu metodologiya korxonalarning moliyaviy barqarorligini baholashda klassik iqtisodiy yondashuvlarni sun'iy intellekt texnologiyalari bilan uyg'unlashtirib, zamonaviy tahlil vositasini yaratadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida korxonalarning bankrotlik ehtimolini aniqlashga qaratilgan turli sun'iy intellekt modellarining ishlash samaradorligi solishtirib baholandi. Modellar o'rtasidagi farqlarni aniq ko'rsatish maqsadida aniqlik (accuracy), aniqlik darajasi (precision), qayta aniqlash (recall) va F1-koeffitsiyent ko'rsatkichlari hisoblab chiqildi. Quyidagi jadvalda to'rtta modelning olingan natijalari umimlashtirilgan (1-jadval).


1-jadval. Sun'iy intellekt modellarining statistik natijalari¹

Model	Accuracy	Precision	Recall	F1-score
Logistic Regression	0.78	0.75	0.72	0.73
Random Forest	0.87	0.85	0.88	0.86
XGBoost	0.92	0.91	0.94	0.92
LSTM	0.94	0.93	0.95	0.94

1-jadval shuni ko'rsatadiki, an'anaviy statistik model bo'lgan logistic regression eng past natijalarni qayd etgan. Random Forest modeli nolinear bog'liqliklarni qayta ishlashda yaxshiroq natija bergan bo'lsa-da, eng yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lgan modellar — XGBoost va LSTM bo'ldi. Ayniqsa, LSTM modelining recall ko'rsatkichi 0.95 bo'lgani, uning bankrot bo'lish ehtimoli yuqori bo'lgan korxonalarni aniqlashda eng ishonchli model ekanini tasdiqlaydi.

Bu natijalar iqtisodiy jarayonlar dinamik, nolinear hamda vaqt bo'yicha o'zgaruvchan ekanini hisobga olganda, aynan deep learning yondashuvlari real muhitga eng mos kelishini isbotlaydi. Farqlash qobiliyatini baholagan ROC egri chiziqlari ham ushbu xulosani tasdiqlaydi: LSTM va XGBoost egri chiziqlari ideal burchakka yaqinlashadi, ya'ni ular turli chegaraviy qiymatlar oralig'ida ijobiy va salbiy toifalarni juda yaxshi ajratadi. Random Forest modelining ROC chizig'i barqaror, biroq chuqur o'rganish (LSTM) darajasiga yetmaydi, logistic regression esa diagonalga yaqinroq bo'lib, pastroq AUC qiymatini bildiradi.

Shu bilan birga, grafiklarda ayrim modellar AUC bo'yicha "deyarli mukammal" ko'rinishi mumkin, bu hol o'quv-test bo'linishida tanlov hajmi kichik bo'lsa yoki xususiyatlar juda tozalangan bo'lsa, ortiqcha moslashish (overfitting) xavfini anglatadi. Amaliy joriy etishda bunday holatni kamaytirish uchun k-fold kross-validatsiyaning o'rtacha (macro) AUC qiymatini berish, shuningdek, vaqt bo'yicha rolling window validatsiyani qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi (1-rasm).

1-rasm. ROC grafiklari tahlili²

Natijalar modellar xatolarining tabiati bo'yicha ham farq qilishini ko'rsatadi. Logistik regressiya modelida xatolar asosan "chegarada turgan" korxonalar — ya'ni ko'rsatkichlari tanlov mezonlariga yaqin bo'lgan subyektlar toifasida to'planadi. Random Forest modelida esa xatolar tarmoq, faoliyat turi yoki korxona hajmiga qarab nisbatan barqaror taqsimlanadi. Biroq iqtisodiy sharoit keskin o'zgargan holatlarda, masalan, foiz stavkalari oshishi yoki valyuta kursining o'ta tebranishi modelni ehtiyotkorlik bilan qo'llash zaruratini keltirib chiqaradi. XGBoost modelida xatolar ko'pincha noto'g'ri ijobiy baholashlar ko'rinishida namoyon bo'ladi, ya'ni model bankrot emas korxonani "bankrot bo'lishi mumkin" deb baholaydi. Bu holat ayrim konservativ kredit siyosatlar uchun maqbul bo'lishi mumkin. LSTM modelida esa aksincha — noto'g'ri salbiy holatlar, ya'ni aslida

¹ Jadval muallif hisob-kitoblari asosida yaratilgan.

² Rasm muallif hisob-kitoblari asosida yaratilgan.



bankrot bo'lish xavfi yuqori bo'lgan korxonani "barqaror" deb baholash holatlari juda kam uchraydi. Shu sababli erta ogohlantirish tizimlari uchun LSTM modeli eng ma'qul yechim sifatida baholanadi.

Bankrotlikni o'rganishga oid tadqiqotlarda ma'lumotlarning nomutanosibligi keng tarqalgan hodisa sanaladi, chunki amaliyotda bankrot korxonalar sog'lom korxonalarga qaraganda ancha kam uchraydi. Shu sababli bizning tahliliy tizimda bu nomutanosiblikni kamaytirish uchun sinf og'irliklarini belgilash — ya'ni kam uchraydigan toifalarga yuqoriroq vazn berish — maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shuningdek, SMOTE yoki Borderline-SMOTE kabi sun'iy namunalar yaratish usullaridan foydalanish ma'lumotlar sifati va signal darajasini yaxshilaydi hamda model natijalarini yanada ishonchli qiladi. Aks holda, logistik regressiya singari oddiy modellar yoki ayrim ansambl modellar "bankrot emas" toifasiga og'ib ketib, recall ko'rsatkichi pasayib ketishi mumkin.

Model natijalarining ishonchliligini ta'minlashda kalibrlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ba'zan modellar chiqargan ehtimollik qiymatlari haddan tashqari ishonchli yoki keskin bo'lib chiqadi. Bunday holatlarda Platt usuli yoki izotonik moslashtirish kabi yondashuvlar qo'llanadi. To'g'ri kalibrlangan ehtimolliklar bank kredit risklarini baholash, kutilayotgan yo'qotishlarni hisoblash (IFRS 9 standarti), limitlarni belgilash hamda portfel monitoringi jarayonlarida alohida ahamiyatga ega.

Modelning barqarorligini aniqlashda stress-sinovlar ham katta ahamiyatga ega. Masalan, inflyatsiya 2–3 foiz punktga oshsa, so'm dollarga nisbatan keskin qadrsizlansa yoki qayta moliyalash stavkasi kutilmaganda oshirilsa, LSTM modeli bu o'zgarishlarga sezgir bo'ladi, ammo qayta aniqlash ko'rsatkichi yuqori darajada saqlanib qoladi. XGBoost modelida esa threshold qiymatini qayta belgilash orqali noto'g'ri ijobiy holatlarni boshqarish imkoniyati mavjud. Tarmoq kesimida eksportga yo'naltirilgan yoki valyuta riskiga ochiq korxonalar ko'proq ta'sirchan bo'ladi, ichki bozorga xizmat ko'rsatuvchi va pul oqimi barqaror korxonalarda esa noaniqlik darajasi nisbatan past bo'ladi.

Amaliy joriy etish bosqichida bir nechta muhim jihatlar e'tiborga olinishi kerak. Birinchidan, ma'lumotlarni yangilash va kuzatish chastotasi — oylik yoki choraklik ma'lumotlar bilan ishlash LSTM modelining ustun tomonlarini yanada ochib beradi. Ikkinchidan, modelni boshqarish tizimi (model governance) — validatsiya, kalibrlash, ma'lumotlar oqimidagi o'zgarishlarni aniqlash (drift tahlili) va versiyalarni arxivlash kabi jarayonlarni o'z ichiga olishi kerak. Uchinchidan, model natijalarining izohlanishi — masalan, XGBoost modeli uchun SHAP qiymatlari kredit qo'mitasi qarorlarini asoslashda yordam beradi, LSTM modeli uchun esa vaqt bo'yicha xususiyatlar ta'sirini aks ettiruvchi vizual xarita (salience map) taqdim etish mumkin. Bu yondashuvlar Sharipovning investitsion xavflar haqidagi fikrlari, Ahmedjanovning ichki nazorat va audit tamoyillari, Eshovning makroiqtisodiy xavfsizlik konsepsiyalari hamda I.S. Zaynutdinovning pul oqimlari va moliyaviy aktivlarni boshqarish bo'yicha ilmiy ishlari bilan uyg'unlashadi. Kuchli nazorat tizimiga ega korxonalarda modelga kiritiladigan ma'lumotlar sifati ham yuqori bo'lib, natijada xatoliklar kamayadi.

Shu bilan birga, ayrim cheklovlar ham mavjud. Ushbu tadqiqotda keltirilgan ROC grafiklari sintetik ma'lumotlar asosida chizilgan bo'lgani sababli, AUC ko'rsatkichining "idealga yaqin" ko'rinishi real, katta hajmdagi ma'lumotlar ustida biroz pasayishi tabiiy holatdir. Shu sababli amaliyotda ko'p martalik k-marta kross-validatsiya (masalan, $k = 10$) va vaqt bo'yicha kesib tekshiruvchi usul (time-series split) qo'llanishi maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, korxonalar haqidagi xulq-atvor yoki tranzaksiya ma'lumotlar qo'shilganda LSTM va Transformer turidagi modellar natijalari sezilarli darajada yaxshilanadi — bu esa kelgusidagi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, korxonalarning bankrotlik ehtimolini aniqlashda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish, ayniqsa LSTM va XGBoost modellarini qo'llash, an'anaviy statistik yondashuvlarga nisbatan yuqori aniqlik, tezkorlik va ishonchlilikni ta'minlaydi. LSTM modeli vaqt qatori ma'lumotlaridagi kechikkan ta'sirlarni chuqur tahlil qilgani sababli, erta ogohlantirish tizimlarida eng samarali natijalarni berdi. XGBoost esa ma'lumotlar tuzilmasida mavjud murakkab iqtisodiy bog'liqliklarni aniqlashda yuqori barqarorlikni namoyish etdi.

Bankrotlik xavfini aniqlashda eng muhim omillar sifatida korxonaning qarz yukining darajasi, pul oqimining o'zgaruvchanligi, foiz to'lovlarini qoplash koeffitsiyenti, joriy likvidlik va valyuta riskiga ochiqlik aniqlovchi ahamiyatga ega bo'ldi. Ushbu ko'rsatkichlarni model tahliliga kiritish farqlash qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi. Ma'lumotlar nomutanosibligini kamaytirish, modelni to'g'ri kalibrlash hamda muntazam tekshiruv mexanizmlarini joriy etish natijalarning ishonchliligini mustahkamlaydi.

Olingan natijalar asosida quyidagi ilmiy-amaliy xulosaga kelish mumkin: sun'iy intellekt asosidagi modellarni bank tizimlari, iqtisodiy tahlil markazlari va moliyaviy nazorat organlari faoliyatiga joriy etish orqali korxonalarning moliyaviy barqarorligini erta bosqichda baholash va potensial xavflarni oldindan aniqlash imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, iqtisodiy tahlil hamda moliya yo'nalishlarida sun'iy intellektga asoslangan metodlarni o'qitish va



amaliyotga joriy etish, Markaziy bankning kredit risk monitoringi tizimida esa AI asosidagi yagona raqamli ogohlantirish tizimini shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Altman, E. I. (1968). Financial ratios, discriminant analysis and the prediction of corporate bankruptcy. The Journal of Finance, 23(4), 589–609.
2. Ohlson, J. A. (1980). Financial ratios and the probabilistic prediction of bankruptcy. Journal of Accounting Research, 18(1), 109–131.
3. Zhang, L., & Li, W. (2022). AI-based bankruptcy prediction models: Evidence from emerging economies. Journal of Applied Finance and Banking, 12(3), 75–89.
4. Samariddinovich, Z. I. (2023). Ways to Increase Profit Margins through Effective Cash Flow Management in Joint Stock Companies.
5. Samariddinovich, Z. I. (2021). Analysis of the Effectiveness of Receivables Management. American Journal of Economics and Business Management, 4(7), 86-92.
6. Зайнутдинов, И. (2021). Молиявий активларни бошқаришнинг йўллари. Экономика и инновационные технологии, (4), 68-72.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
